

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “ Biologiya va qishloq xo’jalik
mahsulotlari texnologiyalari kafedrası
professor-o‘qituvchilari tashabbusi bilan
2-TTJ da o‘tkazilgan Amir Temur tavalludining 689-yilligi
munosabati bilan o‘tkazilgan “Amir Temur haftaligi” nomli
ma’naviy tadbir

B A Y O N N O M A S I.

5.04.2025 y

Denov tumani

Qatnashdilar: Biologiya va qishloq xo’jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrası
professor-o‘qituvchilari

KUN TARTIBI:

1. Amir Temur haftaligi doirasida o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlarning bosqichlari haqida ma’lumot berish.
2. Tadbirda faol ishtirok etgan talaba qizlarni taqdirlash
3. Yotoqxona qizlari bilan suhbatlashish

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 689-yilligi munosabati bilan Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya va qishloq xo’jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrası professor-o‘qituvchilari tomonidan 2-son TTJ da "Amir Temur haftaligi" tadbiri tashkil etildi.

Tadbir ishtirokchilari buyuk Amir Temur bobomizning ibratli hayot yo‘li, davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyati hamda ulkan bunyodkorlik ishlari haqida gapirishdi



Ayniqsa, Amir Temur o'z davrida madaniyat, ma'rifat, ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo'shganligi alohida ta'kidlandi. Amir Temurning buyuk davlat arbobi sifatidagi shaxsiyatini yosh avlod ongiga singdirish, uning boy merosini yoshlar orasida targ'ib qilish, vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini kuchaytirish, tarixiy xotirani yoshlar ongida mustahkamlash, ularni tarixiy merosga ehtirom ruhida tarbiyalash haqida aytib o'tildi.



Bundan tashqari kafedra professor-o'qituvchilari yotoqxona talaba –qizlariga Temur tuzuklari va boshqa tarixiy asarlarning mohiyati haqida tushuncha berildilar.



QAROR QILINDI:

1. Institutning 2-TTJ dagi qizlar o'rtasida "Amir Temur haftaligi" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbiri maroqli o'tkazildi deb hisoblansin.
2. Tadbirda faol ishtirok etgan talabalar taqdirlansin.
3. Professor-o'qituvchilar tomonidan yotoqxona qizlari bilan suhbatlashish bundan keyin ham tashkillashtirilsin.

Kafedra mudiri:

dots.M.K.Hamroyeva.

Kotib:

D.Sodiqova.



Переслано от Илхом Каф



"Amir Temur haftaligi" tadbiri

III Sohibqiron Amir Temur tavalludining 689-yilligi munosabati bilan Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan 2-son TTJda "Amir Temur haftaligi" tadbiri tashkil etildi.

• Tadbir ishtirokchilari buyuk Amir Temur bobomizning ibratli hayot yo'li, davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyati hamda ulkan bunyodkorlik ishlari haqida gapirishdi.

✍ Ayniqsa, Amir Temur o'z davrida madaniyat, ma'rifat, ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo'shganligi alohida ta'kidlandi.

● Samimiy muloqot, savol-javoblar bilan o'tgan tadbir talabalarning buyuk bobomiz – Amir Temur hayoti va faoliyati haqidagi bilim hamda tushunchalarini yanada boyitishga xizmat qildi desak, mubolag'a emas.